

JADID ADABIYOTINING VUJUDGA KELISH ASOSLARI

Davlatov Soyibnazar Xujaniyozovich

Kutubxona - axborot fakulteti dekani

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Qahramonov Aliboy Yolgoshevich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: *Adabiy-badiiy tafakkurimiz taraqqiyoti tarixida mohiyati va mazmuniga ko`ra tamoman yangi bo`lgan XIX asrning ohiri - XX asr boshi adabiyotining roli va o`rni alohida. Ushbu maqolada jadid adabiyotining vujudga kelishi va bunga hissa qo`shgan jadidlar haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *jadid, adabiyot, she'r, Turkiston, harakat, xalq, asar, millat, hayot.*

Аннотация: *особое место в истории развития нашей литературно-художественной мысли занимает совершенно новая по своей сути и содержанию литература конца XIX - начала XX веков. В этой статье рассматривается возникновение джадидской литературы и джадидов, которые способствовали этому.*

Ключевые слова: *Джадид, литература, поэзия, Туркестан, движение, Народ, произведение, нация, жизнь.*

Annotation: *in the history of the development of our literary and artistic thinking, the role and place of literature of the 19th-early 20th centuries, which is completely new in essence and content, is special. This article reflects on the genesis of jadid literature and the jadids who contributed to it.*

Key words: *jadid, literature, poetry, Turkestan, movement, people, work, nation, life.*

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi. Bu asrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiy hodisalarning almashinish surati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu asr boshida ag'dar- to'ntar bo'lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hayot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiyotimiz milliy hayotimiz bilan yelkama-yelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hayotdan tamomila ajralib qolmagan bo'lsa-da, ijtimoiy turmushning muammolari uni to'la chulg'ab olmasdi. XX asrga kelib, adabiyot hayotga yaqinlashdi. Bu bilan kifoyalaniq qolmay, hayotni o'zgartirishga urina boshladi.

Rossiya bosqini, uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiyinlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy tengsizlik tufayli kechayu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug'ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik

tufayli esa turkistonliklarda g'urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi. XIX asrning adog'i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish harakati boshlangan edi.

Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning nochor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish uchun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga erishib bo'lmasligi tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, sur'at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi ayon bo'ldi. Faqat ruhga ta'sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo'lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o'rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o'qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shakllana boshlagan ma'rifatchilik qarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. "Jadid" so'zi arabcha "yangi" ma'nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar.

Shuni aytish kerakki, ma'rifatchilik bilan jadidchilik faqat yuzaga kelgan vaqt nuqtayi nazaridangina emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsadlari jihatidan ham turli hodisalar edi. Chunonchi, ma'rifatchilar mavjud holatni o'zgartirishni emas, balki uni isloh qilishni, xalqning ma'rifiy saviyasini ko'tarishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar uchun ommani ma'rifatli qilish bosh maqsad yo'lidagi bir bosqich edi, xolos. Maqsad esa vatanni obod, millatni ozod qilish va Turkistonning avvalgi shuhratini tiklashdan iborat edi. Ishni XIX asrning 90-yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar ko'p o'tmay, Turkistonda hur, demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtirdilar. 1917-yilda Turkiston muxtoriyatining bunyod etilishi shu rejaning amalga oshirilishi yo'lidagi jiddiy urinish edi.

XX asr boshiga kelib, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning takomillashuvi millatning ma'rifatli vakillariga o'z xalqi hayotini dunyodagi mutaraqqiy xalqlar turmushi bilan solishtirish imkonini berdi. Rossiyada 1905-yil oktabrdagi so'z va matbuot erkinligi haqidagi Manifestning qabul etilishi natijasida o'zbek matbuotining rivojlanishiga ham bir qadar imkon yaratildi. Agar o'zbek tilidagi birinchi va yolg'iz gazeta 1870-yildan chop etilayotgan «Turkiston viloyatining gazetasi» bo'lsa, 1905-yildan so'ng vaqtli matbuot soni ancha ko'paydi. 1905-1917-yillar orasida o'lkada 22 gazeta, 8 jurnal o'zbek tilida chiqarilgan. Bu hol millat ahlining tafakkur tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Kundalik matbuot o'zbek adabiyotidagi yangilanishlar ko'lamining kengayishiga sabab bo'ldi. Kitobning sanoat yo'li bilan chop etilishi ham millat ijtimoiy-estetik tafakkuri rivojlanishining kuchli omili bo'ldi.

Jadid adabiyoti to'lig'icha millatni uyg'otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkoniyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi. Jadid adiblari yangi mavzularni yangi janrlarda va yangi obrazlar orqali ifodalashga urindilar. Yana bir muhim jihat shundaki, jadid yozuvchilari

shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy amali bilan ham millatni uyg'otishga jahd qilgandilar. Agar ma'rifatchilar ko'p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular olib kirgan bo'lsa, jadidlar o'zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari yangi janrlarni kiritdilar.

Jadid adabiyotining yetakchi sohasi she'riyat edi. O'zbek mumtoz she'riyatidan ham vazn, ham til va uslub, ham g'oyaviy jihatdan keskin farq qilgan jadid she'riyati XX asr o'zbek adabiyotida yangi yo'nalishning ravnaq topishiga tamal toshini qo'ydi. O'zbek xalqining asr boshlarida nodonlik va jaholat muhitida yashaganligi, ijtimoiy hayot, fan, madaniyat, texnika sohalaridagi o'zgarishlarga loqaydligi, kundalik maishiy muammolar girdobiga qolib, ma'naviy jihatdan nochor bir ahvolga tushganligi faqat jadid publitsistikasininggina emas, balki she'riyatning ham g'oyaviy yo'nalishini belgilab berdi. Jadidlar o'z she'rlari bilan xalqning basharasiga ko'zgu tutishga, bu ko'zguda uning g'arib va qashshoq hayotini, ruhsiz holati va badbin kayfiyatini aks ettirishga intildilar. Avloniy 1909-1917 yillar davomida e'lon qilgan «Birinci muallim», «Ikkinchi muallim», ayniqsa, olti qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy she'rlar» degan to'plamlaridagi she'r va masallari bilan jadid she'riyatining shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Nasr adabiy harakatni davr talablari va xalqning ruhiy-ma'naviy ehtiyoji sari yaqinlashtirishga uringan jadid adabiyotida salmoqli o'rinni egallaydi.

O'zbek jadidchilik harakatining yirik arboblardan biri Fitrat «Munozara» asari bilan jadid nasrini boshlab berdi. 1909-13 yillari Turkiyada tahsil ko'rgan va shu yillari yosh turklar harakati bilan yaqindan tanishgan Fitrat Turkistondagi davlat, din, maorif va madaniyat sohalarida tubdan islohot o'tkazish lozimligini birinchilardan bo'lib sezdi. U o'sha yerda yozilib nashr etilgan «Sayha» («Faryod» 1910) she'rlar to'plami, «Munozara» (1909) va «Sayyoh hindi» (1912) nasriy asarlarida Turkistondagi voqelikka farang olimi va hind sayyohining ko'zi bilan qarab, undagi chirkin tomonlarni shafqatsiz tarzda ochib tashladi.

So'nggi ikki asar publitsistikaga hos ruh va tasvir unsurlaridan holi emas, lekin Fitrat agar «Munozara»ni bir farang bilan Buxorolik mudarris o'rtasidagi bahs shaklida yozgan va hatto sahna asari sifatida namoyish etilgan bo'lsa, ikkinchi asariga hind sayyohi obrazini kiritgan hamda Buxoro amirligining ijtimoiy va iqtisodiy, ma'rifiy va diniy qarashlari asosiga jadidchilik harakatining dasturulamalini qo'ygan.

Jadid nasrida realistik an'analarni boshlab bergan Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhamedov, Hamza, Mo'minjon Muhammadjon o'g'li (Toshqin) va boshqalar Fitratdan farqli o'laroq, Turkiston xalqlari hayotining mudhish manzaralarini tasvirlash va xalqqa milliy taraqqiyot manzillarini ko'rsatish yo'lidan bordilar. Cho'lpon «Qurboni jaholat» hikoyasida (1913) o'lkaning zaharlangan muhiti har qanday yangi shabadani ham yutib yuborishi mumkinligini haqqoniy ko'rsatdi. «Do'xtur Muhammadyor» (1914) hikoyasida esa yangi avlod navqiron paytidayoq mahv bo'lmasligi uchun taraqqiyot darajasi baland bo'lgan shaharlar va mamlakatlarga borib, yuqori malakali mutaxassislar bo'lib kelishi hamda millatni olg'a yetaklashi lozim degan fikrni ilgari surdi. Bu har ikkala asar keyinchalik jadid yozuvchilarining ma'rifat nuri bilan sug'orilgan aksar asarlari uchun andoza vazifasini o'tadi.

Shu yillari publitsistika sohasida ayniqsa, samarali ijod qilgan Mirmuhsin Shermuhamedov ham badiiy nasr bilan qiziqib, «Befarzand Ochildiboy» asarini (1914) yozdi.

Muallif o`zining bu asarini garchand roman deb atagan bo`lsa-da, bu davrda hali jadid nasri yetarli badiiy tajribaga ega bo`lmagan vaqtda o`zbek romanining tug`ilishi amri mahol edi. Shuning uchun ham Hamza singari uning ham orzusi to`la ro`yobga chiqmagan. Biroq Mirmuhsin o`z asarida bir tomondan Ochildiboy ismli badavlat boyning, ikkinchi tomondan, undan qarzdor bo`lib qolgan qulahmadning hayot tarzini kuzatgan va bu ikki obraz orqali 1910-yillardagi voqelikning asosiy tamoyillarini belgilashga uringan.

Jadid shoirlari qatorida ijod eta boshlagan Mo`minjon Muhammadjon o`g`li (Toshqin) ham shu yillari nasr sohasida qalam tebratib, «Eski maktab turmushi yoki Tolib» degan qissasini (1915) yozdi. Hamzaning «Yangi saodat yoxud milliy roman» asari (1915) ham yosh avlodning tarbiyasi masalasiga bag`ishlangan. Hamza bu asarida Olimjon ismli yigitning murakkab hayot yo`lini tasvirlar ekan, uning jadid maktabida va oqila ona bag`rida tarbiya topgani uchun faqat oila a`zolariga mehribon ustoz va homiylariga sadoqatli bo`lib emas, balki «g`arib millat uchun kerakli» kishi bo`lib o`sganiga ham alohida e`tiborni qaratadi. Olimjonning otasi boyning o`g`li bo`lganiga qaramay, johil otasi orqasida ma`rifat bulog`idan bahramand bo`lmagan, shu sababdan u kufr yo`liga kirib, mol-mulkidan ayrilgan va qimorbozlarning cho`tali bilan kun kechiruvchi kimsaga aylangan. Hayotda o`z yo`lini va bahtini topgan Olimjon hatto ana shu badbaht otasini ham oila bag`riga qaytarib, o`zining farzandlik burchini a`lo darajada ado etadi. Hamza asarda o`qimagan ota bilan o`qigan farzand taqdirini o`zaro qiyoslab, ilmning inson va jamiyat taqdiridagi ulug` ahamiyatini ochishga va jadidchilikning ma`rifatparvarlik G`oyalarini xalq ommasi orasida keng yoyishga uringan.

1910-yillarning o`rtalarida «Juvonboz» va «Uloqda» hikoyalari bilan Abdulla qodiriy ham jadid nasrining maydonga kelishiga o`z hissasini qo`shdi.

Shunday qilib, jadid nasri o`zbek adabiyotida ilk bor realistik qissa, hikoya, ocherk va esse-dialog janrlarining yaxshi namunalari bera oldi va shu jarayonda zamonaviy o`zbek adabiy tilining shakllanishiga sharoit hozirladi.

Jadid adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu adabiyot vakillari badiiy ijodning faqat bir turida asarlar yozibgina qolmay, ayni paytda boshqa qo`shni turlarda ham asarlar yaratdilar. Bu bilan ham kifoyalanib qolmay, teatr san`atiga asos solib, o`zbek adabiyotiga birinchi marta dramaturgiyani olib kirdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy ozodlik va istiqloq g`oyalari // O`TA, 1996, 4-son
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T., «Xalq merosi» nashriyoti, 2004.
3. Mahmudxo`ja Behbudiy. Ikki maqola: Jaholat dardlaridan & Teyotur nima? «Xurshid Davron kutubxonasi» (kh-davron.uz)
4. L. Tashmumammedova. "Adabiyot tarixi va nazariyasi". Adabiy meros va zamonaviylik.-Toshkent:-Adabiyot va san`at nashriyoti. 1983 yil,



5. <https://elib.buxdu.uz>